



CHAKANA BANK XIZMATLARINING MOHIYATI, TURLARI VA AHAMIYATI

THE ESSENCE, TYPES, AND SIGNIFICANCE OF RETAIL BANKING SERVICES

¹**Parpiboyeva Lobar
Abdikomilovna**

¹*Toshkent xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi*

Annotatsiya Annotation

Uzb. - Ushbu maqolada tijorat banklarining zamonaviy iqtisodiyotdagi o'rnini, xususan, chakana bank xizmatlari (retail banking) faoliyatining mohiyati, turlari va iqtisodiy ahamiyati chuqur tahlil qilingan. Tadqiqotda tijorat banklari tomonidan aholi va kichik biznes subyektlariga ko'rsatadigan xizmatlari (depozitlar, kreditlar, to'lovlar, pul o'tkazmalari va investitsiya xizmatlari) o'rganilgan. Ilmiy manbalar tahlili asosida xorijiy va mahalliy olimlarning mazkur sohadagi ilmiy qarashlari ko'rib chiqilgan. Maqolada chakana bank xizmatlarining bank tizimining barqarorligi, moliyaviy inklyuziya va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishdagi muhim roli asoslab berilgan.

Eng. - This article provides an in-depth analysis of the role of commercial banks in the modern economy, in particular, the essence, types and economic significance of retail banking activities. The study examines the services provided by commercial banks to the population and small businesses (deposits, loans, payments, money transfers and investment services). Based on the analysis of scientific sources, the scientific views of foreign and domestic scientists in this area are reviewed. The article substantiates the important role of retail banking services in promoting the stability of the banking system, financial inclusion and economic growth.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *tijorat banklari, chakana bank xizmatlari, depozitlar, kreditlar, raqamli banking, masofaviy bank xizmatlari, moliyaviy inklyuziya, to'lov tizimlari, iqtisodiy ahamiyat, bank islohotlari.*

❖ *commercial banks, retail banking services, deposits, loans, digital banking, remote banking services, financial inclusion, payment systems, economic significance, banking reforms.*

Kirish.

Tijorat banklari zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas qismi bo'lib, ular moliyaviy resurslarni optimal taqsimlash va iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ular kredit berish va jamg'armalarni qabul qilishda, balki investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda va iqtisodiy o'sishni ta'minlashda ham faol ishtirok etadilar. Shunday qilib, tijorat banklari

milliy iqtisodiyotning barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirishda markaziy o'rin tutadi. Bank tizimi har qanday mamlakat iqtisodiyotining asosiy tayanchlaridan biri bo'lib, unda tijorat banklari alohida o'rin tutadi. Tijorat banklari o'z faoliyatini yuridik va jismoniy shaxslar bilan ishlash orqali amalga oshiradi. Shu jumladan, chakana bank xizmatlari (retail banking) aholi va kichik biznes subyektlariga bank mahsulotlari va

xizmatlarini taqdim etishni nazarda tutadi.

Bugungi kunda O'zbekistonda chakana bank xizmatlarini rivojlantirishga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Markaziy bank shuningdek, bank tizimini modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish, innovatsion moliyaviy mahsulotlarni ishlab chiqish va aholining keng qatlamlari uchun bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Xususan, raqamli bank xizmatlari va masofaviy bank xizmatlarining keng qo'llanilishi chakana bank xizmatlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Chakana bank xizmatlari asosan jismoniy shaxslarga va kichik biznes subyektlariga yo'naltirilgan bo'lib, ular quyidagi xizmat turlarini o'z ichiga oladi: kreditlash, depozit xizmatlari, to'lov tizimlari, pul o'tkazmalari, valyuta operatsiyalari va investitsiya xizmatlari. Ushbu xizmatlarning rivojlanishi aholi turmush darajasini yaxshilash, tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish va naqd pulsiz hisob-kitoblarni rag'batlantirishga xizmat qiladi.

Biroq, chakana bank xizmatlarini rivojlantirish jarayonida bir qator muammolar ham mavjud. Jumladan, bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarining hududiy nomutanosibligi, moliyaviy savodxonlikning yetarli darajada emasligi, raqamli bank xizmatlaridan foydalanishdagi texnik muammolar va xavfsizlik masalalari ushbu sohada takomillashtirish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda. Shu sababli, aholining chakana bank xizmatlarini takomillashtirish bo'yicha samarali strategiyalarni ishlab chiqish eng muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Aholiga bank xizmatlarini ko'rsatish va ular uchun bank xizmatlari bilan bog'liq xarajatlarni kamaytirish masalalari xorijiy iqtisodchilar F. Modigliani va M. Miller o'z

tadqiqotlarida banklarning aholiga xizmat ko'rsatish tizimi asosan "aholiga uyida xizmat ko'rsatish" yo'nalishida rivojlanishi maqsadga muvofiqligini ta'kidlashgan. Bu g'oya masofaviy bank xizmatlari rivojlanishining dastlabki bosqichlaridan biri hisoblanadi [1].

P.S. Rose va W.L. Scott kabi bir qator olimlar ssuda kapitali bozoridagi xizmatlar, ayniqsa, elektron xizmatlar keng tarqalgani oqibatida banklarning birlashish va singib ketish holatlari ko'payishiga, shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslarga ko'rsatiladigan xizmatlarining risklilik darajasi yuqori bo'lishiga olib kelganini aytishgan [2].


J.C. Van Horne, J.M. Wachowiczlar masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish va ularning samaradorligiga e'tibor qaratishgan. Bu olimlarning fikricha, tijorat banklari masofaviy xizmatlarning yangi turlarini joriy etish, aholi uchun qulayliklar yaratish hamda jamg'arma va to'lov kartalaridagi pullarning xavfsizligini ta'minlash orqali bank operatsiyalari samaradorligini oshirishi lozim [3].

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqola ishidagi muammoni o'rganish uchun tizimli tahlil, ilmiy mushohada, analiz va sintez, induksiya va deduksiya kabi usullardan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Chakana bank mijozlar uchun qulay va ularning moliyaviy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan. Ushbu xizmatlar banklarga daromad olish, mijozlar bazasini kengaytirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun xizmat qiladi. Bugungi kunda bank tizimini rivojlantirishning eng muhim yo'nalishlaridan biri chakana bank xizmatlari sohasini kengaytirish, ularni innovatsion texnologiyalar asosida takomillashtirish bo'lib qolmoqda. Tijorat banklari tomonidan ko'rsatiladigan chakana bank xizmatlari turlarini quyidagi 1-rasmda ko'rishimiz mumkin.



1-rasm. Tijorat banklari tomonidan ko'rsatiladigan chakana bank xizmatlarining turlari [4]

Depozit xizmatlari – depozit xizmatlari tijorat banklarining asosiy faoliyat yo'nalishlaridan biri bo'lib, jismoniy va yuridik shaxslarning vaqtincha bo'sh turgan mablag'larini banklarga jalb qilish va ular bo'yicha ma'lum muddatdan keyin yoki talabga binoan foiz to'lashni nazarda tutadi. Banklar depozitlarni jalb qilish orqali o'z resurs bazasini mustahkamlab, kredit va investitsiya operatsiyalarini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Depozit xizmatlari aholining mablag'larini jamg'arish va ularni xavfsiz saqlash uchun muhim vosita bo'lib, bu jarayon bank tizimining barqarorligini ta'minlashga ham xizmat qiladi. Shu sababli, depozit xizmatlarini rivojlantirish banklarning moliyaviy salohiyatini oshirish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishning muhim tarkibiy qismidir.

Kredit xizmatlari – tijorat banklarining asosiy faoliyat turlaridan biri bo'lib, u jismoniy va yuridik shaxslarga vaqtinchalik moliyaviy resurslarni (iste'mol kreditlari, ipoteka kreditlari, avtokreditlar va boshqa turdagi kredit mahsulotlari) ajratishni o'z ichiga oladi. Kredit – bu bank tomonidan mijozga ma'lum shartlar asosida berilgan qarz puli bo'lib, uni

ma'lum vaqt ichida foizlari bilan qaytarish majburiyati mavjud. Kredit xizmatlari iqtisodiy rivojlanishning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi, chunki ular tadbirkorlikni rivojlantirishga, aholi daromadlarini oshirishga va investitsiya faoliyatini qo'llab-quvvatlashga yordam beradi. Banklar o'z daromadlarini kreditlar berish orqali shakllantiradilar va bo'sh mablag'lardan samarali foydalanishga ko'maklashadilar.

To'lov va hisob-kitob xizmatlari – tijorat banklarining asosiy faoliyat yo'nalishlaridan biri bo'lib, ular mijozlarning pul mablag'larini xavfsiz va tezkor tarzda uzatish, to'lovlarni amalga oshirish hamda moliyaviy operatsiyalarni boshqarish imkoniyatini ta'minlaydi. Ushbu xizmatlar jismoniy va yuridik shaxslarning o'z mablag'larini samarali boshqarishiga yordam beradi va iqtisodiy tizimning barqaror ishlashini ta'minlaydi.

To'lov xizmatlarining rivojlanishi pul aylanmasining tezlashishiga, naqd pulsiz hisob-kitoblar ulushining ortishiga va umumiy iqtisodiy faollikning oshishiga xizmat qiladi. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar va elektron to'lov tizimlarining (plastik kartalar, internet va mobil banking, elektron hamyonlar)

keng joriy etilishi ushbu xizmatlarning yanada rivojlanishiga turtki bermoqda.

Pul o'tkazmalari va valyuta operatsiyalari – bank va moliyaviy tashkilotlar tomonidan taqdim etiladigan xizmat bo'lib, mijozlarga o'z mablag'larini boshqa jismoniy yoki yuridik shaxslarga tezkor va xavfsiz ravishda jo'natish imkoniyatini yaratadi. Pul o'tkazmalari mamlakat ichida yoki xalqaro miqyosda amalga oshirilishi mumkin. Bugungi kunda naqd pulsiz hisob-kitoblarning kengayishi, elektron bank xizmatlarining rivojlanishi va raqamli texnologiyalarning ommalashishi pul o'tkazmalarining tezkor, ishonchli va arzon bo'lishini ta'minlamoqda [5].

Sug'urta va investitsiya xizmatlari – sug'urta xizmatlari tijorat banklari va sug'urta kompaniyalari tomonidan taqdim etiladigan moliyaviy xizmatlar bo'lib, mijozlarning hayoti, sog'lig'i, mulki va boshqa manfaatlarini turli xavflardan himoya qilishga qaratilgan. Sug'urta tizimi mablag'larni to'plash va qayta taqsimlash mexanizmi bo'lib, kutilmagan moliyaviy zararlarga qarshi kafolat yaratadi. Sug'urta xizmatlarining rivojlanishi aholining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, tadbirkorlik faoliyatining xavfsizligini oshirish va iqtisodiy taraqqiyotni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Bugungi kunda sug'urta sohasi O'zbekistonda tez rivojlanayotgan sektor bo'lib, tijorat banklari ham sug'urta mahsulotlarini mijozlarga taklif qilmoqda.

Masofaviy bank xizmatlari – bu bank mijozlariga filiallarga tashrif buyurmasdan turib, zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida moliyaviy operatsiyalarni (mobil banking, internet-banking, SMS-xabarnoma va boshqa zamonaviy raqamli xizmatlar) amalga oshirish imkonini beruvchi xizmatlar to'plamidir. Ushbu xizmatlar bank mijozlariga 24/7 rejimida operatsiyalarni bajarish, vaqt va mablag'ni tejash hamda bank xizmatlaridan tez va qulay foydalanish imkoniyatini yaratadi. Masofaviy bank xizmatlarining rivojlanishi, ayniqsa, raqamli texnologiyalar va internet tarmog'ining keng tarqalishi bilan bog'liq

bo'lib, hozirda nafaqat jismoniy, balki yuridik shaxslar uchun ham katta ahamiyat kasb etmoqda.

Chakana bank xizmatlarining iqtisodiy ahamiyati nafaqat tijorat banklari uchun, balki butun iqtisodiyot uchun ham katta ahamiyatga ega:

- Bank tizimining barqarorligini oshirish
- jismoniy shaxslarning omonatlari va depozitlari banklar uchun muhim moliyaviy resurs bo'lib xizmat qiladi.

- Pul oqimini tartibga solish – chakana bank xizmatlari orqali aholi o'z mablag'larini bank tizimi orqali boshqaradi, bu esa iqtisodiyotda naqd pulsiz hisob-kitoblarning rivojlanishiga yordam beradi.

- Iste'mol talabini rag'batlantirish – kredit xizmatlari aholining yirik xaridlarni amalga oshirishiga sharoit yaratib, ichki bozorning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [6].

- Moliyaviy inklyuziyani kengaytirish – masofaviy va raqamli bank xizmatlari orqali aholi keng moliyaviy imkoniyatlarga ega bo'ladi.

- Banklarning daromad manbai – chakana xizmatlar orqali tijorat banklari barqaror daromad oladi va o'z kapitalini oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bugungi kunda texnologik taraqqiyot va raqamli transformatsiya jarayonlari chakana bank xizmatlarini yanada rivojlantirishga yordam bermoqda. Banklar o'z mijozlariga qulay, tezkor va ishonchli xizmatlarni taqdim etish orqali raqobatbardoshligini oshirishi lozim.

Banklarni davlat tomonidan nazorat qilinishining asosiy sababi shundaki, banklar tarixan aholi, ayniqsa, xususiy shaxslar va oilalarning mablag'lari saqlanadigan muassasalar hisoblanadi. Davlat banklar faoliyatini nazorat ostiga olib, tartibga solish orqali omonatchilar va kreditorlarni moliyaviy yo'qotishlardan himoya qilishga, shuningdek, banklarning inqirozga yuz tutishi natijasida yuzaga keladigan salbiy oqibatlardan saqlashga

harakat qiladi. Bir bankning inqirozga uchrashi oqibatida ko'plab korxonalar va minglab oddiy omonatchilar moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Shuning uchun bankning operatsiyalari, taklif qilinayotgan xizmat turlari, kreditlarning sifati va hajmi, bank sarmoyasining yetarliligi hamda mijozlarga taqdim etilayotgan xizmatlarning sifati doimiy ravishda nazorat qilinadi [7].

Bugungi kunda tijorat banklari xizmatlari kengayib, sifati yaxshilanmoqda hamda yangi istiqbolli mijozlarni jalb qilish maqsadida raqobat kuchaymoqda. Mijozlarga keng qamrovli xizmatlar ko'rsatish va ularning

ehtiyojlarini qondirish bugungi kun talabiga aylangan. Shu sababli, banklar mijozlar manfaatini hisobga olgan holda daromad keltiruvchi dastur va tadbirlarni amalga oshirishi muhim. Shuningdek, har bir moliyaviy xizmatning mazmuni, foydali va xavfli jihatlari haqida mijozlarga tushuncha beruvchi maxsus bo'limlarni tashkil etish maqsadga muvofiq. Moliyaviy xizmatlarni kengaytirish banklarning daromad manbalarini oshirish bilan birga, ularni zamonaviy bank tizimi darajasiga olib chiqishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

1-jadval

O'zbekistondagi tijorat banklarida chakana bank xizmatlari (2024-yil holatiga) [8]

Bank nomi	Asosiy xizmatlar	Mijozlar soni	Yillik o'sish (foizda)	Karta sonini o'sishi (foizda)
O'zbekiston Milliy banki	Depozitlar, kreditlar, plastik kartalar	1 500 000	12 foiz	15 foiz
Ipoteka bank	Ipoteka krediti, depozitlar	1 200 000	10 foiz	10 foiz
Qishloq Qurilish banki	Qishloq xo'jaligi kreditlari	800 000	8 foiz	5 foiz
Kapitalbank	Kreditlar, depozitlar, plastik kartalar	600 000	15 foiz	20 foiz
Asaka bank	Avtokreditlar, depozitlar	500 000	9 foiz	12 foiz
Turon bank	Internet banking, mobil banking	300 000	20 foiz	25 foiz

Berilgan ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston Milliy Banki eng ko'p mijozga ega bo'lib (1 500 000 kishi), bu uning mamlakat miqyosidagi yetakchiligini ko'rsatadi. Bank depozitlar, kreditlar va plastik kartalar kabi keng ko'lamli xizmatlarni taklif etadi. Ipoteka bank ham 1 200 000 mijoz bilan katta bozor ulushiga ega. Uning asosiy yo'nalishi ipoteka kreditlari va depozitlar hisoblanadi. Eng tez o'sayotgan banklar qatorida Turon bank va Kapitalbank ajralib turadi. Turon bank 20 foiz yillik o'sish va 25 foiz karta o'sishi bilan yuqori dinamikani namoyish etmoqda. Bu, asosan, uning internet va mobil banking xizmatlariga e'tibor qaratgani bilan bog'liq. Kapitalbank ham 15 foiz yillik o'sish va 20 foiz karta o'sishi bilan mijozlarga yo'naltirilgan xizmatlar, xususan, plastik kartalar bo'yicha kuchli o'sishga erishgan. Qishloq Qurilish banki va Asaka bank mos ravishda 800 000 va 500 000 mijozga ega bo'lib, nisbatan torroq xizmat

turlari bilan faoliyat yuritadi. Qishloq Qurilish banki qishloq xo'jaligi kreditlariga ixtisoslashgan bo'lsa, Asaka bank avtokreditlar bilan tanilgan.

Umuman olganda, O'zbekistondagi tijorat banklarida chakana bank xizmatlari sohasida o'sish, raqamli innovatsiyalar va mijozlarga qulayliklar yaratish tendensiyalari kuzatilmoqda. Katta banklar ko'proq mijoz bazasiga ega bo'lsa-da, kichikroq banklar o'sish ko'rsatkichlari bilan yanada tez rivojlanayotganini ko'rsatmoqda.

Xulosa va takliflar.

Tijorat banklarining chakana xizmatlari zamonaviy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo'lib, ular aholi va kichik biznes subyektlarining moliyaviy ehtiyojlarini qondirishda, shuningdek, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Depozitlar, kreditlar, to'lovlar va masofaviy

bank xizmatlari kabi turlar orqali ular moliyaviy inklyuziyani kengaytirib, mamlakatda naqd pulsiz iqtisodiyotni rivojlantirishga xizmat qiladi.

O'zbekistonda bu sohani rivojlantirish borasida sezilarli qadamlar tashlangan bo'lsa-da, moliyaviy savodxonlikni oshirish, hududiy nomutanosiblikni bartaraf etish va raqamli xavfsizlik masalalariga alohida e'tibor qaratish zarur. Markaziy bank tomonidan amalga

oshirilayotgan huquqiy va texnologik islohotlar esa bu yo'nalishdagi kelajak rivojlanishlar uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Raqamli transformatsiyani yanada chuqurlashtirish va innovatsion yechimlarni joriy etish orqali chakana bank xizmatlari yanada shaffof, xavfsiz va samarali tizimga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Modigliani F., Miller M. H. *The cost of capital, corporation finance and the theory of investment* // *The American economic review*. – 1958. – T. 48. – №. 3. – C. 261-297.
2. Rose P. S., Scott W. L. *Risk in commercial banking: evidence from postwar failures* // *Southern Economic Journal*. – 1978. – C. 90-106.
3. Van Horne J. C., Wachowicz J. M. *Fundamentos de administración financiera*. – Pearson educación, 2002.
4. Sh.Z. Abdullayeva. *Bank ishi*. –T.: "IQTISOD-MOLIYA" 2017. 534 b.
5. Mamadiyarov Z. T. *Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish. Iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati*.
6. Xudoyarova X.A. *O'zbekistonda chakana bank xizmatlari amaliyotini takomillashtirish. Iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati*. –T.: 2020. 9 b.
7. Mamadiyarov Z. T. *Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish. Iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati*. –T.: 2019. 12 b.
8. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi – www.cbu.uz